

**“Qurolli Kuchlari Akademiyasida yoshlarni ta’lim va tarbiya berishda o‘qituvchilarning o‘rni va roli”**

***Yakubov Sherzod Baxodirovich***

*O‘R QK Akademiyasi o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:*** Mazkur maqolada, yoshlarni vatanparvarlik ruhida ta’lim-tarbiyalashda o‘qituvchilarning ustuvor vazifalari, yurtimizda harbiy ta’limga katta e’tibor qaratilib kelayotganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida kursantlarning so‘ngi yillardagi erishgan yutuqlari bilan tanishimiz mumkin bo‘ladi.

***Kalit so‘zlar:*** yoshlar, vatanparvar, ta’lim va tarbiya, ilm-fan, salohiyat, ustuvor vazifalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi, farzandlarimiz qanday inson bo‘lib, kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” degan so‘zlari barcha millatu, xalqlarga naqadar muhimligini va dolzarbligini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq Qurolli Kuchlarimiz uchun buyuk sarkardalarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zaxiriddin Muhammad Bobur, istiqlol yo‘lida jonini fido qilgan jadid otabobolarimiz kabi vatanparvar, milliy ruh va o‘zligimizni chuqur anglovchi va qadriga yetadigan, zamonaviy xavf-xatarlar va axborot-psixologik hurujlar sharoitida tezkor va to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan, tashabbuskor va tahliliy fikrlaydigan yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorlash Akademiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

O‘z o‘rnida Akademiya professor-o‘qituvchilarning oldiga quyidagi vazifalar: ya’ni o‘quv va uslubiy ishlarni yuksak professional saviyada olib borish, o‘quv rejaları va dasturlarini samarali va to‘la-to‘kis bajarilishini ta’minlash, kursant va tinglovchilarning bilimlari, mahorati va ko‘nikmalarini talabchanlik bilan adolatli baholash; mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish, ularni fan va texnologiya sohasida erishilgan so‘nggi yutuqlardan foydalangan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llagan, Qurolli Kuchlar va jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi dolzarb muammolar bilan chambarchas bog‘lagan tarzda yuksak g‘oyaviy va uslubiy saviyada o‘tkazish; kursant va tinglovchilarni tarbiyalash, ularning zaruriy harbiy-professional sifatlarini shakllantirish, intellektual, madaniy va ijodiy jihatdan kamol topishlariga g‘amho‘rlik qilish; ilmiy ishlar olib borish, bunday ishlar natijalarini o‘quv jarayoniga joriy etishda faol ishtirok etish, kursant va tinglovchilarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilish; o‘z ilmiy-nazariy saviyasini, pedagogik va harbiy kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish; qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligida to‘plangan tajribalari, pedagogikaning ilg‘or tajribalarini o‘rganib borish va ulardan o‘z faoliyatida unumli foydalanish; kursant va tinglovchilarga xizmat burchini vijdonan bajarish va shaxsiy intizom masalalarida mehnatga ijodiy yondashish, yuksak madaniyat va axloq egasi bo‘lishda ibrat ko‘rsatish kabilar belgilab berilgan.

Mashg‘ulotlar o‘quv fanini xususiyatidan kelib chiqqan holda ma’ruza, seminar, guruhiy, amaliy, taktik o‘quv mashqlari o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlarni o‘tkazishda “rolli o‘yin”, “bumerang”, “muammoli vaziyat”, “aqliy-xujum”, “idrok xaritasi” va boshqa interfaol texnologiyalardan keng foydalangan holda DXX Chegara qo‘shinlarida ko‘p yillik boy tajribaga ega bo‘lgan ofitserlar, faxriylar ishtirokida Akademiyadagi tahsil oluvchilar bilan “mahorat” va “milliy iftixor” darslari o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan.

X

u Shu bilan bir qatorda, kursantlarning o‘z ustida mustaqil ishlari, bilim olishlari uchun Toshkent shahrida joylashgan axborot-resurs markazlari,

u

s

a

kutubxonalarga tashrifi amalga oshirilishi keng yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida o'zaro tajriba almashish maqsadida respublikamizning bir qator Oliy ta'lim muassasalari, xususan, DXX va IIV Akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, Harbiy aloqa institutlari kursantlari bilan birgalikdagi doimiy ravishda mashg'ulotlar, ilmiy-amaliy anjumanlar, davra suhbatlari tashkillashtirilib o'tkazilib kelinadi.

## B

u  
n  
d  
a

O'z o'rnida so'ngi yillarda Qurolli Kuchlari Akademiyasida harbiy ta'limga va ilm-fanga oid keng ko'lamli islohotlari o'zining natijasini bermasdan qolmayati. Bunga misol: Akademiyaning chegarachi kursantlarini yutuqlarini keltirib o'tishimiz mumkin bo'ladi, bulardan: kursant Isroilov Xusniddin Jahon miqyosida o'tkazilgan "Kombat-aykido" sport turi bo'yicha fahrli 1-o'rin, kursant Nematov Rajjabek sportning "Tosh-ko'tarish" turi bo'yicha Hindistonda bo'lib q'tgan jahon birinchiligida fahrli 2-o'rinni, Mudofaa Vazirligi miqyosida o'tkazilgan ko'rik tanlovda o'zining bilimi, tirishqoqligi va faolligi bilan kursant To'ychiev Islombek "Dovvyurak-jangchi" ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi. Shuningdek, Akademiya kursantlari orasidan 2-nafar kursantlari Xikmatullaev Sharof va Qudratov Azizbek, "Amir Temur" nomidagi davlat stipendiyasiga, shuningdek 2-nafar kursantlarimiz Fayzullaev Zayniddin va Isroilov Xusniddinlar "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashi stipendiyasi"ga munosib deb topildilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, so'ngi yillarda harbiy o'qituvchilarimizning professional mahorati va obro'-e'tibori jahon miqyosida ham yuksalib bormoqda. Buni mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining harbiy o'qituvchilari nufuzli xalqaro harbiy musobaqalarda faol ishtirok etib, fahrli o'rinlarni egallab kelayotgani misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ana

y

a

d

shunday sa'y-harakatlar natijasida Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli kafolatlashiga barcha asoslarimiz bor desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Farobiy. Baxt-saodatga erishuv xaqida. risolalar, ma'lumotlar. muharrir. O'zbekiston F.A. haqiqiy a'zosi M.M.Xayrullaev. T.: "Fan" 1975, 76-bet.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir T.: O'zbekiston. 1995, 3-bet.
3. Ibraximov I. "Vatan tuyg'usi" Xalq ta'limi. T.: 1999, 26-bet.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T.: Ma'naviyat. 2008.
5. Fan va texnologiyalar bosmaxonasi, T.: 2009.
6. Ikromov H. Davr va teatr - T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
7. Haydarov S.A., (2022). Zahridin Muhammad Bobur: bir qo'lda mo'yqalam-u, bir qo'lda toj. Scientific progress.
8. Lex.uz.- [Electronic resource]. - Mode of access: <https://lex.uz/docs/>. - Date of access: 09.02.2024.
9. [Daryo.uz.](https://daryo.uz/amp/2021/03/28/gumanitar-fanlar-bolmasa-tanqidiy-fikrlayolmaymiz)- [Electronic resource]. - Mode of access: [https://daryo.uz/amp/2021/03/28/gumanitar-fanlar-bolmasa-tanqidiy-fikrlayolmaymiz.](https://daryo.uz/amp/2021/03/28/gumanitar-fanlar-bolmasa-tanqidiy-fikrlayolmaymiz) - Date of access: 09.02.2024.
10. [Hozir.org.uz.](http://hozir.org/oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-v35.html)- [Electronic resource]. - Mode of access: <http://hozir.org/oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-v35.html> page. - Date of access: 09.02.2024.
11. [Wikipedia](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Digital_history) - [Electronic resource]. - Mode of access: [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Digital\\_history](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Digital_history) - Date of access: 09.02.2024.

